Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy jurnal
IF(Impact Factor) 9.573/2026
ISSN 2181-1881

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Google Scholar
doi® digital object identifier
Academic Resource Index ResearchBib
Crossref
SLIB.UZ Scientific library of Uzbekistan

2/2026

TAHRIR HAY'ATI

Muzaffar KOMILOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR – O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy

Bahrom ABDUHALIMOV – tarix fanlari doktori, professor

Davronbek MAXSUDOV – tarix fanlari doktori, professor

Ahadjon HASANOV – tarix fanlari doktori, professor

Zohidjon ISLOMOV – filologiya fanlari doktori, professor

Shovosil ZIYODOV – tarix fanlari doktori, professor

Uyg‘un G‘AFUROV – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Jamoliddin KARIMOV – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Ibrohim USMONOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ahmad Sa’d DAMANHURIY – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Mahmud Erol QILICH – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Nazir Muhammad AYYAD – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Rejep TUZJU – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Muhammad Rashid AKPINAR – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Ashirbek MUMINOV – tarix fanlari doktori, professor

Kamaluddin Nurdin MARJUNI – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori, professor

Jasur NADJIMITDINOV – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining 2026-yil 26-oktyabrdagi 03-07/8377-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.

Muassis:

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

Bosh muharrir:

Komiljon Shermuxamedov
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Shahzod Islamov
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Sahifalovchi:

Zarifjon Arslonov

Dizayner:

Zarifjon G‘ulomov

«**MOTURIDIYLIK**» jurnali **O‘zbekiston Respublikasi oliy attestatsiya komissiya**sining 2021-yil 30-dekabrdagi 310/10-son qarori bilan dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2021-yil 12-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1139 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Tahririyat manzili:
Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko‘chasi, 11-uy.
E-mail:info@maturidijournal.org
Web-sahifa:maturidijournal.org
Telefonlar:(+99855) 515-98-98

МУНДАРИЖА

ISLOMSHUNOSLIK

Muzaffar KAMILOV
Sirojiddin O‘shiyning «al-Fatovo» asarida muftiy odoblari va unga qo‘yiladigan talablar 4

Otabek MUHAMMADIYEV
Dorul hadis – hadis markazlari faoliyati tahlili 15

Mekhrojiddin AMONOV
Zarafshon vohasidagi tariqat murshidlari: o‘zaro munosabat va tahlil 26

Hamida ILHOMOVA
Abu Hanifa shaxsiyati va ilmiy merosining o‘rganilishi 34

ISLOM HUQUQI

Nargiza KHALKHODJAEVA
Islomda farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq sunnat amallarning tarbiyaviy ahamiyati 41

Rakhshona KENJABOYEVA
Sadr shahid Husomuddin Umar Buxoriyning «Kitob al-vaqf» asarida faqihlarning vaqf nazariyasi: fiqhiy bahslar va ularning huquqiy ahamiyati 47

DINSHUNOSLIK

Rustamjon BOZOROV
«Tablig‘ jamoati»ning Markaziy Osiyoda tarqalish omillari va milliy xavfsizlikka ta’siri 57

ISLOM TARIXI VA MANBASHUNOSLIGI

Shahzod ISLAMOV, Olovkhon NEMATOV
Abu Hafs Nasafiyning «al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand» asari VIII–XII asrlar Samarqand ilmiy muhiti haqidagi nodir manba 64

Doston MUSTAFOYEV
Tarjumon al-Qur’on – Qur’on lug‘ati ma’nolariga oid xalqchil risola 80

FILOLOGIYA

Nodirabegim SAIDOVA
Bo‘lajak arab tili o‘qituvchilarini tayyorlashda kasbiy va madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirish (oliy ta’lim muassasalari tajribasi misolida) 86

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MOTURIDIYLIK
https://maturidijournal.org/index.php/moturidiylik
https://doi.org/10.65944/MOTURIDIY/2026-2/5

Nargiza KHALKHODJAEVA[a]

[a]*Doctoral Student*
International Islamic Studies Academy of Uzbekistan
11A. Abdulla Qodiriy Street, Tashkent, 100011, Uzbekistan
*E-mail:*nxolxojayeva@gmail.com

ISLOMDA FARZAND TUG‘ILISHI BILAN BOG‘LIQ SUNNAT AMALLARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada islomda bola tug‘ilganidan keyin bajariladigan sunnat amallarning diniy, huquqiy, axloqiy va tarbiyaviy ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda bola huquqlarini ta’minlash masalasi zamonaviy huquqiy me’yorlar, xususan, O‘zbekiston Respublikasida bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy islohotlar hamda islomiy qadriyatlar uyg‘unligi nuqtai nazaridan yoritilgan. Yangi tug‘ilgan chaqaloqqa azon va takbir aytish, tahnik qilish, yaxshi va mazmunli ism qo‘yish, aqiqa qilish, sochini olish va xatna qilish kabi amallarning mazmun-mohiyati ochib berilgan.*

Shuningdek, Ibn Qayyim Javziyaning «Tuhfat al-mavdud bi ahkom al-mavlud» asari hamda islomda ta’lim-tarbiyaga oid zamonaviy tadqiqotlar asosida mazkur amallar ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek, turli fiqhiy mazhablarning aqiqa va xatnaga doir qarashlari qiyosiy o‘rganilgan. Azon va takbirning chaqaloq hayotidagi ma’naviy ahamiyati, tahnikning sunnat sifatidagi maqomi, ism tanlashda uning yaxshi ma’no anglatishi zarurligi, aqiqaning shukronalik va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashdagi o‘rni hamda soch olish va sadaqa berishning tarbiyaviy jihatlari yoritilgan. Xatna esa fitrat amallaridan biri sifatida, poklik va diniy an’ana bilan bog‘liq holda tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida bola tug‘ilishi bilan bog‘liq sunnat amallar faqat marosimiy an’analar emas, balki bolaning oiladagi maqomi, ma’naviy-axloqiy tarbiyasi, ota-onaning mas’uliyati va jamiyatdagi o‘rnini shakllantirishga xizmat qiluvchi qadriyatlar tizimi ekani asoslangan.

Kalit so‘zlar:*bola huquqlari, islom shariati, sunnat amallar, yangi tug‘ilgan chaqaloq, azon, takbir, tahnik, ism qo‘yish, aqiqa, soch olish, sadaqa, xatna, bola tarbiyasi, ota-ona mas’uliyati, fiqh, islomiy qadriyatlar.*

THE EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF SUNNAH RITES ASSOCIATED WITH CHILDBIRTH IN ISLAM

Abstract. *This article analyzes the religious, legal, moral, and educational significance of the Sunnah rites performed after childbirth in Islam. The study addresses the issue of safeguarding children's rights through the synthesis of modern legal standards – specifically the legal reforms aimed at protecting children's rights in the Republic of Uzbekistan – and Islamic values. The core essence and significance of rites such as reciting the adhan and iqamah into the newborn's ears, performing tahneek, giving a good and meaningful name, performing aqeeqah, shaving the hair, and circumcision are thoroughly elucidated.*

Furthermore, these traditions are scientifically analyzed based on Ibn Qayyim al-Jawziyya's work «Tuhfat al-Mawdud bi-Ahkam al-Mawlud» and contemporary studies on education in Islam. A comparative study of the views across various jurisprudential (fiqh) schools regarding aqeeqah and circumcision is also presented. The article highlights the spiritual importance of the adhan and iqamah in a newborn's life, the status of tahneek as a Sunnah, the necessity of choosing a meaningful name, the role of aqeeqah in reinforcing gratitude and social cohesion, as well as the educational aspects of hair shaving and charity giving. Circumcision is analyzed as a natural disposition (fitrah) practice linked to purity and religious tradition. As a result of the research, it is substantiated that the Sunnah practices associated with childbirth are not merely ceremonial traditions, but rather a comprehensive system of values serving to shape the child's familial status, spiritual and moral upbringing, parental responsibility, and place in society.

Keywords:*children's rights, Islamic law (Sharia), Sunnah practices, newborn child, adhan, iqamah, tahneek, naming, aqeeqah, shaving hair, charity (sadaqah), circumcision, child upbringing, parental responsibility, jurisprudence (fiqh), Islamic values.*

KIRISH

Bola huquqlarini ta’minlash va buning uchun zarur bo‘lgan barcha shart-sharoitlarni yaratish bugungi kunda davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda bola huquqlarini himoya qilish, uning qonuniy manfaatlarini ta’minlash va oiladagi tarbiyasini mustahkamlashga qaratilgan qator huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2023-yilda yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda uning to‘laqonli rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish davlatning muhim vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

Mazkur yo‘nalish 2024-yil 14-noyabrda qabul qilingan «Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘RQ–996-son Qonunda yanada rivojlantirildi. Ushbu Qonun bolalarni jismoniy, ruhiy va boshqa shakldagi zo‘ravonliklardan himoya qilish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlashning huquqiy mexanizmlarini belgilab berdi. Shuningdek, 2025-yil 24-dekabrdagi Prezident Farmoni bilan 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasining tasdiqlanishi ushbu masalaning davlat siyosatidagi dolzarbligini ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, bola huquqlarini faqat zamonaviy huquqiy normalar asosida emas, balki xalqimizning tarixiy, diniy va milliy-ma’naviy qadriyatlari bilan bog‘liq holda o‘rganish ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Islomda bolaning huquq va manfaatlariga uning tug‘ilishidan boshlab alohida e’tibor qaratilib, unga nisbatan bajarilishi lozim bo‘lgan qator diniy, axloqiy va tarbiyaviy amallar belgilangan. Jumladan, azon va takbir aytish, tahnik qilish, chiroyli ism qo‘yish, aqiqa qilish, soch olish hamda xatna kabi sunnat amallar bolaning oiladagi maqomi va ma’naviy tarbiyasi bilan bevosita bog‘liqdir.

ASOSIY QISM

Islom inson hayotining barcha bosqichlarini, jumladan, go‘dak dunyoga kelishi bilan bog‘liq ilk jarayonlarni ham ma’naviy-huquqiy jihatdan tartibga soladi. Bola tug‘ilgandan so‘ng bajarilishi tavsiya etilgan sunnat amallar – azon va takbir aytish, tahnik qilish, chiroyli ism qo‘yish, aqiqa marosimini o‘tkazish hamda soch olish kabi amallar nafaqat diniy an’ana, balki muayyan huquqiy va tarbiyaviy mazmunga ega bo‘lgan ijtimoiy institutlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Huquqiy jihatdan mazkur amallar bolaning oila va jamiyatga mansubligini e’tirof etish, uning nasabi hamda shaxsiy maqomini mustahkamlashga xizmat qiladi. Tarbiyaviy nuqtai nazardan esa, ular go‘dak qalbida ilk ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish, oilada mehr-oqibat va mas’uliyat muhitini qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Islom huquqida bolaning tug‘ilishidan boshlab u bilan bajarilishi lozim bo‘lgan diniy, axloqiy va ijtimoiy vazifalar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu masalalarni tizimli ravishda yoritgan muhim manbalardan biri Ibn Qayyim Javziyaning (vaf. 1350-y.) «Tuhfat al-mavdud bi ahkom al-mavlud» asaridir. Muallif mazkur kitobda yangi tug‘ilgan chaqaloqning huquqlari, unga ism qo‘yish, tahnik, azon aytish, aqiqa, xatna, tarbiya va ta’lim kabi masalalarni Qur’on oyatlari hamda hadisi shariflar asosida batafsil bayon qilgan. Shu jihatdan asar islomda bola huquqlari va farzand tarbiyasiga oid eng muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Islomda farzand dunyoga kelishi Alloh taoloning ulug‘ ne’matlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Shu sababli yangi tug‘ilgan chaqaloq munosabati bilan tabriklash, xursandchilik izhor qilish, u va ota-onasining haqqiga ezgu duolar qilish sunnat amallardan sanaladi.

Ibn Qayyim al-Javziya o‘zining «Tuhfat al-mavdud bi ahkom al-mavlud» asarida yangi tug‘ilgan farzand munosabati bilan tabriklash odoblari haqida to‘xtalib, quyidagilarni bayon qiladi:«Johiliyat davrida nikoh munosabati bilan quyidagi iboralarni aytish odat bo‘lgan:«بالرفاء والبنين» («Rifoh va o‘g‘illar bilan muborak bo‘lsin»).

Mazkur iboradagi «rifo» so‘zi o‘zaro uyg‘unlik, ahillik va kelishuv ma’nolarini anglatadi. Ya’ni, «ahillik va totuvlikka sabab bo‘ladigan nikoh muborak bo‘lsin», degan ma’noni ifoda etadi. «Banin» esa o‘g‘illar degan ma’noni bildiradi.

Abu Bakr ibn Munzir «al-Avsat» asarida Hasan Basriydan shunday rivoyat qiladi:«Bir kishi Hasan Basriy huzurida o‘tirgan paytda bir odamning o‘g‘li tug‘ildi. Shunda kimdir unga:«Senga bir chavandoz (bahodir o‘g‘il) muborak bo‘lsin!» dedi. Hasan Basriy esa:«Sen uning haqiqatan ham chavandoz yoki bahodir bo‘lishini qayerdan bilasan, nega bunday deyapsan?» dedi. So‘ngra:«Sen uni «Senga Alloh ato etgan farzand muborak bo‘lsin. Ne’mat bergan Zotga shukr qilgin. Farzanding kamolot yoshiga yetsin va uning yaxshiligidan bahramand bo‘lgin», deyishing lozim» dedi. (بَارَكَ اللهُ لَكَ فِي المَوْهُوبِ لَكَ، وَشَكَرْتَ الوَاهِبَ، وبَلَغَ أَشُدَّهُ، وَرُزِقْتَ بِرَّهُ) (Ibn Qayyim Javziya, 2015:30).

Islom dini tomonidan yangi tug‘ilgan chaqaloq uchun belgilangan qoidalardan biri – u dunyoga kelishi

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

bilanoq darhol o‘ng qulog‘iga azon, chap qulog‘iga esa takbir aytishdir. Ibn Qayyim Javziya «Tuhfat al-mavdud bi ahkom al-mavlud» asarining to‘rtinchi bobini yangi tug‘ilgan chaqaloqning o‘ng qulog‘iga azon, chap qulog‘iga esa takbir aytish masalasiga bag‘ishlagan. Muallif ushbu sunnat amalning shar’iy asosi sifatida Abu Rofi’dan (r.a.) rivoyat qilingan hadisda:«Men Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamning Hasan ibn Aliy tug‘ilganida, uning qulog‘iga azon aytganlarini ko‘rdim», degan rivoyatni keltiradi. Shuningdek, Imom Bayhaqiy rivoyat qilgan hadisda yangi tug‘ilgan bolaning o‘ng qulog‘iga azon, chap qulog‘iga takbir aytish tavsiya etilgani bayon qilinadi. Muallif Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qilingan uchinchi hadisning isnodi zaif ekanini qayd etgan.

Ibn Qayyimning keltirishicha, ushbu sunnatning asosiy hikmati chaqaloq eshitadigan ilk kalimalarning Allohning ulug‘ligi va tavhidga da’vat bo‘lishidadir. Muallif, shuningdek, azon shaytonni uzoqlashtirishi hamda ilohiy da’vatning inson fitratiga shayton vasvasasidan oldin yetib borishini ushbu sunnatning muhim hikmatlaridan biri sifatida e’tirof etadi (Ibn Qayyim Javziyya, 2015:30-31).

Bugungi kunda yangi tug‘ilgan chaqaloqning qulog‘iga azon aytish sunnati zamonaviy psixologik tadqiqotlar nuqtai nazaridan ham ilmiy izohlanmoqda. Ayniqsa, chaqaloqning dastlabki rivojlanishida eshitish sezgisining ustuvor o‘rin tutishi ushbu sunnatning hikmatlarini zamonaviy fan nuqtai nazaridan yoritishga imkon beradi. Bu borada indoneziyalik tadqiqotchilar Vrisko Putra Vachruddin, Arif Ainur Rofiq va Syarif Hidayatullohning «Examining the Culture of Adhan and Iqomah Preaching in Newborns:Perspectives on Religion and Psychology» nomli maqolasida Fuad Nashori, Uilyam Crain va Vertxeymerning tadqiqotlariga tayanib qayd etilishicha, inson dunyoga kelgach, faol ishlay boshlaydigan birinchi sezgi organi quloq hisoblanadi. Shu sababli chaqaloq tug‘ilishi bilan uning qulog‘iga azon va takbir aytilishi tavhid va shahodat kalimalarini ilk eshitadigan so‘zlarga aylantiradi. Mazkur qarash zamonaviy psixologik tadqiqotlar bilan ham uyg‘unlashadi. Xususan, G‘arb psixologi Uilyam Krein 0–2 yosh oralig‘ida bolaning eshitish, ko‘rish, hid bilish, ushlash va sezish qobiliyatlari faol rivojlanishini qayd etadi. Shuningdek, Vertxeymer olib borgan tadqiqotlar yangi tug‘ilgan chaqaloq tug‘ilganidan taxminan o‘n daqiqa o‘tib eshitgan tovush manbai tomon yuzlanishini ko‘rsatgan. Ushbu hodisa psixologiyada orientatsion refleks deb ataladi (Vrisko Putra Vachruddin, Arif Ainur Rofiq, Syarif Hidayatulloh, 2023:177-180).

MUHOKAMA

Shayx Imodiddin Zaydon Saqr o‘zining «Huquq at-tifl va subul tahqiqiha fi-sh-shari’a al-islomiya» asarida yangi tug‘ilgan chaqaloqqa tahnik qilish shariatda tavsiya etilgan amallardan biri ekanini ta’kidlaydi. Muallif tahnikni xurmoni chaynab yumshatib, undan oz miqdorini chaqaloqning tanglayiga surtish, deb izohlaydi va bu hukmni Abu Muso Ash’ariy (r.a.) rivoyat qilgan hadis bilan asoslaydi:«Mening o‘g‘lim tug‘ildi. Uni Rasulullоh (s.a.v.) huzurlariga olib bordim. U zot unga Ibrohim deb ism qo‘ydilar va xurmo bilan tahnik qildilar» (Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyati) (Imodiddin Zaydon, 2023:96).

Raf’at Farid Suvaylim ham tahnikni yangi tug‘ilgan bolaning shariatda belgilangan huquqlaridan biri sifatida e’tirof etadi. Muallifning hadislarga tayanib, tahnikning xurmo bilan bajarilishi afzal ekani, zarurat bo‘lganda esa boshqa shirin mahsulotlardan foydalanish mumkinligi qayd etadi. Shuningdek, muallif Imom Ibn Hajar va Imom Navaviylarning sharhlariga murojaat qilib, tahnikni solih va taqvodor kishi tomonidan bajarish mustahab ekanini hamda bu amaliyot chaqaloqning emish refleksini faollashtirish, og‘iz mushaklarini mustahkamlash va emizishga tayyorlash kabi jismoniy foydalarga ham ega ekanini ta’kidlaydi. Asarda zamonaviy tibbiy qarashlarga tayangan holda, tahnik qon aylanishini faollashtirishi va chaqaloqning emish qobiliyatini kuchaytirishi ham qayd etilgan (Suvaylim, 2008:91-93).

Tadqiqotchi Ibrohim Canan o‘zining «Gs. Peygamber’in (sallallahu aleyhi ve sellem) Sünnetinde Terbiye» asarida yangi tug‘ilgan bolaga ism qo‘yish masalasini alohida tahlil qiladi. Muallifning ta’kidlashicha, ayrim hadislarda Payg‘ambarimiz (s.a.v.) yangi tug‘ilgan bolaga tug‘ilgan kunning o‘zidayoq ism qo‘yganlari rivoyat qilinsa, boshqa hadislarda esa ism qo‘yishning yettinchi kuni amalga oshirilishi zikr etilgan. Imom Buxoriy ushbu rivoyatlar o‘rtasidagi zohiriy tafovutni nozik tarzda izohlaydi (Imom Buxoriy, 2019:1353). U «Aqiqa qilinmaydigan bola uchun tug‘ilgan kunning o‘zida ism qo‘yish» nomli bob ochib, tug‘ilgan kunning o‘zida ism qo‘yish aqiqa qilinmaydigan holatlarga taalluqli ekaniga ishora qiladi. Ibn Hajar ham Buxoriy keltirgan rivoyatlarda tug‘ilgan kunidayoq ism qo‘yilgan bolalar uchun aqiqa qilinganiga oid aniq dalil mavjud emasligini qayd etadi. Chunki aqiqa vojib emas, balki tavsiya etilgan (mustahab) amal hisoblanadi. Shu bilan birga, ismni faqat yettinchi kuni qo‘yish kerak, undan oldin bunga ehtiyoj yo‘q, degan fikr na shar’iy dalillar, na mantiqiy asoslar nuqtai nazaridan to‘liq qabul qilinmaydi.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Chunki Rasulullоh (s.a.v.) hatto homila tushib qolgan bolaga ham ism qo‘yib dafn etishni tavsiya qilganlar (I. Canan, 2008:115).

Muallifning fikricha, ism qo‘yishda asosiy mezon farzand uchun chiroyli va yaxshi ma’noli ism tanlashdir. Bu borada Rasulullоh (s.a.v.) shunday deganlar:«Sizlar Qiyomat kuni o‘z ismlaringiz va otalaringizning ismlari bilan chaqirilasizlar. Shuning uchun ismlaringizni chiroyli qilinglar» (Imom Abu Dovud, 1996:292). Shuningdek, Rasulullоh (s.a.v.) ma’nosi nojoiz bo‘lgan ismlarni yaxshi ma’noli ismlar bilan almashtirganlari rivoyat qilinadi. Shu asosda muallif ko‘plab ulamolarning ism insonning shaxsiyati va axloqiy kamolotiga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatishi haqidagi qarashlarini ham keltiradi (I.Canan, 2008:116).

Ibn Qayyim Javziya ism va inson shaxsiyati o‘rtasida ma’lum bog‘liqlik mavjudligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, Alloh taolo O‘z hikmati bilan ko‘pincha insonlarning ismlarini ularning holati va fe’l-atvoriga mos qilib qo‘yadi. Muallif Said ibn Musayyab va boshqa salaf ulamolarining rivoyatlarini keltirib, yaxshi ism insonning xulq-atvoriga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, yomon ma’noli ism esa salbiy ruhiy ta’sir qoldirishi mumkinligini bayon etadi. Shuningdek, Rasulullоh (s.a.v.) ma’nosi yomon bo‘lgan ayrim ismlarni o‘zgartirganlari ham bu qarashning amaliy dalili sifatida keltiriladi (Ibn Qayyim Javziya, 2015:146-147).

Demak, islom huquqida bolaga yaxshi va mazmunli ism qo‘yish ota-onaning farzand oldidagi dastlabki huquqiy hamda axloqiy majburiyatlaridan biri hisoblanadi. Chunki ism insonning shaxsiyati, jamiyatdagi o‘rni va o‘zini anglashiga ta’sir etuvchi muhim omillardan sanaladi. Shu bois shariat farzandga chiroyli ism tanlash bilan bir qatorda, uni go‘zal odob bilan tarbiyalash va voyaga yetgach oilali bo‘lishiga sharoit yaratishni ham ota-onaning mas’uliyati sifatida belgilagan. Bu mazmun quyidagi hadisda o‘z ifodasini topgan:«Kimning farzandi dunyoga kelsa, uning ismini va odobini chiroyli qilsin. Balog‘atga yetganida esa uni uylantirsin (erga bersin). Agar u balog‘atga yetsa-yu, otasi uni uylantirmasa va u (shu sababli) gunoh ish qilib qo‘ysa, uning gunohi otasining zimmasiga bo‘ladi» (Imom Bayhaqiy, 2000:401).

Saudiyalik tadqiqotchi Hasan ibn Xolid ibn Hasan Sindiy o‘zining «Islomda bolalar huquqlariga e’tibor» nomli tadqiqotida aqiqaning lug‘aviy va istilohiy ma’nosi, uning shariatdagi o‘rni hamda to‘rt mazhabning bu masaladagi qarashlarini tahlil qiladi. Uning ta’kidlashicha, hanafiy mazhabiga ko‘ra, aqiqa chaqaloq tug‘ilganining yettinchi kuni unga ism qo‘yilib, sochi olinib hamda sochi vazniga teng miqdorda sadaqa berilgandan keyin muboh hisoblanadi. Ayrim hanafiy faqihlari esa aqiqani Alloh taologa shukronalik niyatida ado etiladigan nafl ibodat sifatida baholaganlar. Muallifning qayd etishicha, molikiy mazhabida aqiqa mandub amal sanaladi va ularning istilohida mandubning darajasi sunnatdan pastroq hisoblanadi (Sindiy, 2008:21).

Muallifning yozishicha, shofeiy va hanbaliy mazhabi ulamolari aqiqaning sunnati muakkada ekanligini bir qator hadislar asosida isbotlaganlar. Jumladan, Samura ibn Jundub (r.a.) rivoyat qilgan hadisda Rasulullоh (s.a.v.):«Har bir bola aqiqasi bilan garovdadir. Uning nomidan yettinchi kuni jonliq so‘yiladi, boshi qiriladi va unga ism qo‘yiladi» (Imom Abu Dovud, 1996:312), deganlar.

Hasan Sindiy hadisdagi «garovdadir» (مرتهن) va «garovga qo‘yilgan» (رهين) iboralarini sharhlar ekan, ayrim ulamolarning fikriga ko‘ra, bu bolaning nomidan aqiqa qilinmaguncha, uning kamoloti va o‘sishi o‘z tengdoshlariniki kabi to‘liq bo‘lmasligiga ishora qilishini qayd etadi (Sindiy, 2008:22).

Jumhur faqihlar qiz bola uchun ham xuddi o‘g‘il bola kabi aqiqa qilish kerakligini ta’kidlaydi. Bu borada Ummu Kurz Xuzoiya (r.a.) rivoyat qilgan «O‘g‘il bola uchun bir-biriga teng ikki qo‘y, qiz bola uchun esa bir qo‘y so‘yiladi», (Imom Abu Dovud) degan hadisni dalil sifatida keltiradi (Sindiy, 2008:22).

Turkiyalik olim Ibrohim Janan o‘zining «Gs. Peygamber’in (S.A.S.) Sünnetinde Terbiye» asarida aqiqa bilan bog‘liq hukmlar va odoblarni tahlil qilar ekan, hadislarga ko‘ra, aqiqaning eng afzal vaqti chaqaloq tug‘ilganining yettinchi kuni ekanini ta’kidlaydi. Muallifning qayd etishicha, agar aqiqa yettinchi kuni ado etilmasa, ayrim rivoyatlarga ko‘ra uni o‘n to‘rtinchi yoki yigirma birinchi kuni bajarish ham joizdir. Ibn Hajarning fikriga tayangan holda, u aqiqani balog‘at yoshigacha ado etish mumkinligini, balog‘atga yetgach esa uning hukmi soqit bo‘lishini qayd etadi.

Muallifning yozishicha, aqiqa jonligini so‘yish bolaning bosh sochini olishdan oldin bajarilishi maqsadga muvofiq bo‘lib, uning go‘shti boshqa qurbonliklar kabi iste’mol qilinadi va hadya qilinadi. Shuningdek, Payg‘ambar (s.a.v.) Husayn (r.a.) uchun so‘yilgan aqiqaning bir qismini doyaga berishni tavsiya qilganlari ham rivoyat qilingan.

Ibrohim Janan johiliyat davrida aqiqa qurbonligining qonini bolaning boshiga surtish odati mavjud bo‘lganini, biroq Rasulullоh (s.a.v.) bu odatni bekor qilib, uning o‘rniga za’faron yoki xushbo‘y atir surtishni buyurganlarini ta’kidlaydi (I.Canan, 2008:117-118).

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Xulosa o‘rnida, Shayx Imodiddin Zaydon Saqr aqiqaning uchta asosiy hikmatini alohida ta’kidlaydi. Birinchidan, aqiqa Alloh taologa yaqinlashish va farzand uchun baraka hamda balo-ofatlardan omonlik tilash vositasi hisoblanadi. Ikkinchidan, u farzand ne’mati uchun Allohga shukronalik bildirib, ota-onaning quvonchini namoyon etadi. Uchinchidan esa, aqiqa jamiyatda mehr-oqibat, o‘zaro hamjihatlik va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiladi (Imodiddin Zaydon, 2023:100-101).

Saudiyalik tadqiqotchi Raf’at Farid Suvaylim o‘zining «Bola tarbiyasi:islomda bola huquqlari» nomli asarida yangi tug‘ilgan bolaning muhim huquqlaridan biri uning tug‘ilganining yettinchi kunida sochini qirish ekanligini ta’kidlaydi. Muallifning yozishicha, bu amal tug‘ruqdan qolgan ozor va iflosliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Bu haqda Rasulullоh (s.a.v.) aqiqa haqidagi hadisda:«Undan ozorni ketkazinglar» (Imom Abu Dovud), deganlar. Hofiz Ibn Hajar Asqaloniy hadisdagi «الأذى» (ozor) iborasining ma’nosi borasida ulamolar o‘rtasidagi turli qarashlarni keltiradi. Muhammad ibn Sirin va Asma’iy uni bosh sochini qirish deb izohlagan bo‘lsalar, Ibn Hajar Tabaroniy boshqa rivoyatlarga tayangan holda, «ozor» so‘zi sochni qirishni ham, tug‘ruqdan qolgan boshqa iflosliklarni bartaraf etishni ham o‘z ichiga oluvchi umumiy ma’noda tushunilishi maqsadga muvofiq, degan xulosaga keladi (Ibn Hajar Asqaloniy, 2000:734). Bu talqin hadislarning turli rivoyatlarini o‘zaro uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Muallifning qayd etishicha, bolaning sochi vazniga teng miqdorda kumush yoki oltin qiymatida sadaqa qilish ham mustahab hisoblanadi. Bu borada Rasulullоh (s.a.v.)ning Fotima (r.a.)ga:«Ey Fotima! Uning boshini qirgin va sochi vazniga teng miqdorda kumush sadaqa qilgin» (Imom Termiziy, 2015:490), degan hadislari dalil sifatida keltiriladi. Muallifning ta’kidlashicha, bugungi kunda ushbu sunnatga ko‘pchilik tomonidan yetarlicha amal qilinmayapti. Holbuki, uni ado etish sunnatga ergashish barakasini qo‘lga kiritish bilan birga, kambag‘al va muhtojlarga sadaqa berish savobiga ham sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, sochni qirish soch ildizlarini mustahkamlaydi, bosh terisini tozalaydi hamda bolaning sezgi a’zolarining sog‘lom rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, Raf’at Farid Suvaylim bolaning sochini qisman qirib, qolgan qismini qoldirish (qaza’) odatini ham tanqid qiladi. Uning ta’kidlashicha, Rasulullоh (s.a.v.) bu amaliyotni man etganlar. Ibn Umar (r.a.) rivoyat qilgan hadisda:«Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam qaza’dan qaytardilar» (Imom Buxoriy, 2019:1431), deyiladi.

Bola tug‘ilgandan keyin bajariladigan amallardan yana biri xatna bo‘lib, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf ta’kidlaganidek, o‘g‘il bolalarni xatna qildirish islomda sunnat amallardan biri va musulmon xalqlarining qadimdan davom etib kelayotgan an’analaridan hisoblanadi. Muallif xatnani bolaning sog‘lig‘i va pokligini ta’minlash bilan bog‘liq muhim amal sifatida baholaydi. Shuningdek, xatnaning hanafiy mazhabidagi hukmi va uni bajarish vaqti bolaning holati hamda sog‘lig‘iga qarab belgilanishini qayd etadi (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2024:55).

«Xatna» so‘zi lug‘atda kesish ma’nosini anglatadi. Faqihlar ta’rifida esa maxsus a’zoning maxsus bo‘lagini kesishni bildiradi (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2024:55).

Ba’zi hadislarda xatna (sunnat) besh fitratdan biri sifatida zikr qilingan:«Besh narsa fitratdandir:1) xatna (sunnat), 2) avrat tuklarini olish, 3) qo‘ltiq ostidagi tuklarni yulish, 4) tirnoqlarni olish, 5) mo‘ylovni qisqartirish».

Fitrat tushunchasi «avvalgi payg‘ambarlar va shariatlar yakdil bo‘lgan hamda biz ham amal qilishimiz lozim bo‘lgan diniy asoslar» ma’nosida tushunilsa, xatnaning juda qadim zamonlarga borib taqalishi va turli xalqlar orasida keng tarqalgan urf bo‘lishi tabiiydir (I.Canan, 2008:119).

Ibn Qayyim Javziya «Tuhfat al-mavdud bi ahkom al-mavlud» asarida quyidagilarni keltiradi: «Abdurrazzoqning Tovus orqali Ibn Abbosdan rivoyat qilishicha, u mazkur oyatni sharhlab: «Uning Parvardigori Ibrohimni ba’zi kalimalar bilan sinadi...» mazmunidagi oyat haqida: «Bu kalimalar poklik bilan bog‘liq sinovlardir:boshda beshta va badanda beshta», degan.

Boshdagi beshta amal mo‘ylovni qisqartirish, sochni tarash, misvok ishlatish, boshning sochini ajratib turish va og‘izni chayishdir. Badandagi beshta amal esa bolalarni xatna qilish, qov tukini qirish, xatna, hojatdan keyingi poklanish va najosatni suv bilan yuvish kabi poklikka oid amallardan iborat.

Muallif fitratni ikki turga bo‘lishini ham qayd etadi. Bular qalbiy va amaliy fitratdir. Qalbiy fitrat inson qalbiga taalluqli bo‘lib, Allohni tanish, Uni sevish bo‘lib, shuningdek, Unga ishora qiluvchi ma’nolarni o‘z ichiga oladi. Amaliy fitrat esa insonning badanini poklash va unga g‘amxo‘rlik qilish bilan bog‘liq amallardir.

Amaliy fitratga oid ushbu amallarning barchasi insonning pokligi, ozodaligi va sog‘lom hayot kechirishini ta’minlashga xizmat qiladi. Ular orasida xatna ham badan fitratining muhim amallaridan biri

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

sifatida alohida o‘rin egallaydi (Ibn Qayyim Javziya, 2015:161).

Xatna qilish vaqti borasida bola tug‘ilganidan boshlab yettinchi kun, yetti yosh, tish chiqish davri, 7-10 yosh oralig‘i, o‘n yosh va balog‘at yoshi kabi turli qarashlar bildirilgan. Mavardiy mazkur qarashlarni umumlashtirib, quyidagi xulosaga kelgan:xatna uchun ikki vaqt mavjud. Birinchisi vojib bo‘ladigan vaqt bo‘lib, bu balog‘atga yetish davridir. Ikkinchisi mustahab vaqt bo‘lib, bu balog‘atgacha bo‘lgan davrdir. Uning fikricha, eng ma’qul qarash bola tug‘ilganidan keyingi yettinchi kuni xatna qilishdir. Navaviy ham bola tug‘ilganining yettinchi kunida xatna qilishni mustahab deb hisoblagan (I.Canan, 2008:121).

XULOSA

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bola tug‘ilishi bilan bog‘liq sunnat amallar faqat marosimiy xususiyatga ega emas, balki bolaning oiladagi maqomi, ma’naviy tarbiyasi va jamiyatdagi o‘rnini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim islomiy qadriyatlar tizimini ifoda etadi. Ularning fiqhiy maqomini to‘g‘ri anglash va amaliy hayotda me’yoriy tarzda qo‘llash bola manfaatlarini himoya qilish, oilaviy mas’uliyatni kuchaytirish hamda milliy-ma’naviy qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazishga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur sunnat amallar ota-onaning farzand oldidagi mas’uliyatini anglash, unga mehr va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish hamda uning ma’naviy-axloqiy kamoloti uchun zarur muhitni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, sunnat amallarni bolaning huquq va manfaatlari bilan uyg‘un holda o‘rganish islomiy qadriyatlarning zamonaviy bola huquqlari tizimidagi o‘rnini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abu Dovud Sulaymon ibn Ash’as Sijistoniy. (1996). Sunani Abu Dovud (Vol. 2). Dor al-kutub al-ilmiya.
2. Abu Dovud Sulaymon ibn Ash’as Sijistoniy. (1996). Sunani Abu Dovud (Vol. 3). Dor al-kutub al-ilmiya.
3. Abu Bakr Ahmad ibn Husayn Bayhaqiy. (2000). Shuab al-imon (Vol. 6). Dor al-kutub al-ilmiya.
4. İbrahim Canan. (2008). Hz. Peygamber’in (S.A.S.) sünnetinde terbiye. Işık Akademi Yayınları.
5. Ahmad ibn Ali ibn Hajar Asqaloniy. (2000). Fath al-Boriy sharh Sahih al-Buxoriy (Vol. 9). Dor as-salom.
6. Muhammad ibn Abu Bakr ibn Qayyim Javziya. (2015). Tuhfat al-mavdud bi ahkom al-mavlud. Maktaba dor al-bayon.
7. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy. (2019). Sahih al-Buxoriy. Muassasa ar-risola.
8. Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziy. (2015). Sunan at-Termiziy. Dor as-siddiq.
9. Imodiddin Zaydon Saqr. (2023). Huquq at-tifl va subul tahqiqiha fi-sh-shari’a al-islomiya. Dor al-lu’lu’a.
10. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2024). Sog‘lom bola. Hilol-Nashr.
11. Raf’at Farid Suvaylim. (2008). Tarbiyat at-tifl: Huquq at-tifl fi-sh-shari’a al-islomiya. Qohira.
12. V. P. Vachruddin, A. A. Rofiq, & M. S. Hidayatulloh. (2023). Examining the culture of adhan and iqomah preaching in newborns: Perspectives on religion and psychology. Journal Analytica Islamica, 12(2).
13. Hasan ibn Xolid Hasan Sindiy. (2008). Inoya ash-shari’a al-islomiya bi huquq al-atfol. Ar-Riyod.

REFERENCES

1. Abu Dovud Sulaymon ibn Ash’as Sijistoniy. (1996). Sunani Abu Dovud (Vol. 2). Dor al-kutub al-ilmiya.
2. Abu Dovud Sulaymon ibn Ash’as Sijistoniy. (1996). Sunani Abu Dovud (Vol. 3). Dor al-kutub al-ilmiya.
3. Abu Bakr Ahmad ibn Husayn Bayhaqiy. (2000). Shuab al-imon (Vol. 6). Dor al-kutub al-ilmiya.
4. İbrahim Canan. (2008). Hz. Peygamber’in (S.A.S.) sünnetinde terbiye. Işık Akademi Yayınları.
5. Ahmad ibn Ali ibn Hajar Asqaloniy. (2000). Fath al-Boriy sharh Sahih al-Buxoriy (Vol. 9). Dor as-salom.
6. Muhammad ibn Abu Bakr ibn Qayyim Javziya. (2015). Tuhfat al-mavdud bi ahkom al-mavlud. Maktaba dor al-bayon.
7. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy. (2019). Sahih al-Buxoriy. Muassasa ar-risola.
8. Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziy. (2015). Sunan at-Termiziy. Dor as-siddiq.
9. Imodiddin Zaydon Saqr. (2023). Huquq at-tifl va subul tahqiqiha fi-sh-shari’a al-islomiya. Dor al-lu’lu’a.
10. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2024). Sog‘lom bola. Hilol-Nashr.
11. Raf’at Farid Suvaylim. (2008). Tarbiyat at-tifl: Huquq at-tifl fi-sh-shari’a al-islomiya. Qohira.
12. V. P. Vachruddin, A. A. Rofiq, & M. S. Hidayatulloh. (2023). Examining the culture of adhan and iqomah preaching in newborns: Perspectives on religion and psychology. Journal Analytica Islamica, 12(2).
13. Hasan ibn Xolid Hasan Sindiy. (2008). Inoya ash-shari’a al-islomiya bi huquq al-atfol. Ar-Riyod.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZINING «MOTURIDIYLIK» JURNALI

Mazkur nashr oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazari bilan bir xil bo‘lmasligi mumkin. Jurnaldan ko‘chirma olinganda manba qayd etilishi shart.

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

2/2026

Bosh muharrir: **K.Shermuxamedov**
Muharrir: **A.Tajiyev**
Nashr uchun mas’ul: **Z.Arslonov**
Chet tillaridagi matnlar muharriri: **O.Sotvoldiyev**
Dizayner-sahifalovchi: **Z.G‘ulomov**

Nashriyotning lisenziya raqami AI № 0011. 06.05.2019-yil.
Bosishga 10.11.2026-yil ruxsat etildi. Bichimi 60×84 1/8.
Rizograf usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i 10,2.
Nashr tabog‘i 10,4. Buyurtma № 23/1.
Bahosi shartnoma asosida.

“Standard Poligraf Service”
MCHJ qo‘shma korxonasi bosmaxonasida chop etildi.
100152, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Foziltepa ko‘chasi, 12B.